



PECULIARITIES OF TEACHING USING INTERACTIVE METHODS IN PRESCHOOL EDUCATION

Ergasheva Lobar Dilmurodovna¹

Navoi State Pedagogical Institute

KEYWORDS

interactive method,
"interactive" method,
preschool education,
child psychology,
technology

ABSTRACT

Today, the pre-school education system is receiving more attention than any other area. This is due to the fact that preschools and kindergartens play an important role in the development of mature staff, in determining the interests and abilities of children. This article describes the systematic work in this area, the use of interactive technologies and methods in preschool children, as well as fact-analysis of foreign experience.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.6759676

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master of Navoi State Pedagogical Institute, Navoi, UZB

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDALARIDA INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA O`QITISHNING O`ZIGA XOS TOMONLARI

KALIT SO`ZLAR:

interfaol usul,
"interaktiv" metod,
maktabgacha ta'lim,
bolalar psixologiyasi,
texnologiya.

ANNOTATSIYA

Bugun maktabgacha ta'lim tizimiga boshqa sohalarga qaraganda ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Buning boisi esa, maktabgacha ta'lim muassasalari va bog'achalarning yetuk kadr yetishib chiqishida, bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini belgilashida o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada ayni shu sohadagi tizimli ishlar, maktabgacha yoshdagi bolajonlarda interfaol texnologiya va metodlarni qo'llab ko'rish, shuningdek xorij tajribasidagi faktlar-tahlillar bayon etilgan.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va ta'lim oluvchilarning ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda pedagogik jarayonining kafolatli natijasini ta'minlovchi bir qator pedagogik texnologiyalar mavjud.

Ana shu pedagogik texnologiyalarning asosiysi "interaktiv" metod bo'lib, hozirda uning chala tarjimasi ko'p hollarda "interfaol" deb yuritiladi, "interaktiv" atamasi aslida inglizcha "interaktiv" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro ta'sirlashish" ma'nosini bildiradi va biror faoliyat yoki metodda o'zaro bahs munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjihatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o'quv qo'llanmalarini varaqlaganimizda "o'qitishning interaktiv metodlari" termini qo'llanishini ham guvohi bo'ldik. Ta'lim berish jarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganingiz emas, balki sizning ta'limingiz qanday tashkil etilishidadir.

Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodi ta'lim oluvchi va tarbiyachi-pedagogning o'qitish jarayonidagi o'zaro aloqa shaklidir. Tarbiyachi-pedagog va ta'lim oluvchi orasidagi jarayon aslida o'quvchini u yoki bu bilim ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish maqsadida bog'lab turganligini ko'rsatib turadi. Agar keng ko'lamda oladigan bo'lsak, o'qitishning birinchi kunlaridan to shu kungacha tarbiyachi-pedagog va o'quvchi orasidagi keng ma'noda uch xil bog'lanish shakllangan bo'lib, u o'z tasdig'ini topgan. Ko'rinib turibdiki,

uslubiy yondashuvda tarbiyachi-pedagogning barcha metodini uch guruhga bo'lishimiz mumkin:

1. Nofaol metod.
2. Faol metod.
3. Interaktiv metod

Ko'rsatib o'tilgan har bir uslubiy yondashuv o'ziga xos xususiyatga ega. Quyida biz uslubiy yondashuvlarni ko'rib chiqamiz. Shu bilan birga asosiy diqqatimizni tarbiyachi-pedagogning interaktiv usullariga qaratamiz.

Birinchi navbatda interfaoli so'zining lug'aviy ma'nosini ko'rib chiqamiz. «Interfaol» tushunchasi inglizcha «interact» «inter» sozlaridan olingan bo'lib – «birgalikda», «act» – «harakat qilish» degan ma'noni bildiradi. Bugungi kunda Interfaol metodlar barcha ta'lim tizimlarida faol qo'llanilmoqda. Buni biz juda ko'p adabiyotlardan va samarasini ta'lim jarayonidan ham bilishimiz mumkin.

Maktabgacha ta'limda interfaol usullar- bu bolalar, tarbiyalanuvchilar orasida hamda bolalar va tarbiyachi o'rtasida o'zaro harakatni talab qiluvchi usullardir. Interfaol usullar bolaning yuqori faolligini, olingan ma'lumotlarni ijodiy qayta anglashini taqozo etadi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy munozara, materialni erkin bayon qilish imkoniyatlari, kam miqdorda ma'ruzalar, ammo ko'p miqdorda seminarlar, bolaning tashabbusi, jamoa harakatini talab qiluvchi guruhviy topshiriqlar mavjudligi, yozma ishlarni bajarilishi.

Interfaol o'qitishdagi ayrim metodlarining qisqacha mazmuni:

1. Aqliy hujum;
2. Kichik guruhlarda ishlar;
3. Juftlikda ishlash;
4. Kichik ma'ruza;
5. Rolli o'yinlar;
6. Ishchanlik o'yinlari;
7. Bahs-munozara.

Aqliy hujum-tarbiyachi qo'ygan savol yoki muammo yuzasidan har bir bola o'z fikrini bayon etishga imkon beruvchi uslubdir. Uslub mohiyati «Bir kalla yaxshi, ikki kalla undan yaxshi» prinsipi bo'yicha tarbiyachi tomonidan belgilangan muammo va savol yuzasidan ehtimol tutiladigan hamma fikrlar variantlarini bir yerga jamlay olishda bo'lib, istisno tariqasida ta'lim oluvchining barcha fikrlari, jumladan, aytarli to'g'ri bo'lmaganlari ham inobatga olinadi. Bayon etilgan fikrlar keyingi tahlilda bolalarning qo'yilgan savol yoki muammoni to'g'ri tushunishlariga imkon beradi. (Bolalarga savol beriladi. Barcha g'oya va takliflar yozib boriladi).

Kichik guruhlarda ishlash-bolalarning o'zaro muloqot va fikr almashuviga asoslangan. Bunda guruhda tahlil qilish, baholash, tekshirish asosida muayyan mavzu yoki savollar ishlab chiqiladi. Kichik guruhlarda ishlash 4-5 boladan iborat guruhlar tuziladi.

Kichik ma'ruza-o'tiladigan mavzuning mazmuni haqida kichik ma'lumot beriladi. So'ng mavzu bo'yicha guruhlarda ishlanadi.

Rolli o'yinlar-bolalarga biror muammoli vaziyat berildi. Bolalar bu muammoni yechimini rollar orqali ifodalab berishadi. Bolalar bu usul «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Ularga amaliy ish faoliyatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko'rish va tekshirish imkoniyatlarini beradi.

Ishchanlik o'yinlari-bunda bolalar mavjud materialdan foydalanib biror narsani (predmetni) kichik guruhlarga bo'lingan holda yasaydilar. Bunda bolalarda o'ylash, to'g'ri maqsadni qo'yish, tejamkorlik xislatlari rivojlanadi.

Biz maktabgacha ta'limda interfaol usullarni qo'llaydigan pedagoglarga quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- Mashg'ulotlarni o'yin tarzida, erkin sharoitda, dam va ko'ngilochar tadbirlar shaklida tashkil eting;
- ta'lim ishtirokchilarini mustaqil izlanishlarini ta'minlang;
- tarbiyachni emas tinglovchilarning faolligi;
 - tarbiyachining yo'naltirib, yordam berishi;
- Interfaol usullar ishtirokidagi mashg'ulot tarkibining asosiy qismiga emotsional zo'riqishni bartaraf etuvchi o'yinlar kiriting.

Shu o'rinda Xitoy xalq maqolini keltirishni lozim deb topdik: «Men gapirsang esdan chiqaraman, menga ko'rsatsang eslab qolishim mumkin, menga o'zim ishlashimga imkoniyat ber, shunda bu batamom meniki bo'lib qoladi».

Interfaol texnologiyalar muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi:

- kattalar va bolalar bilan bepul aloqa o'rnatish;
- bolalarning og'zaki nutqining barcha tarkibiy qismlarini ishlab chiqish;
- nutq standartlari o'quvchilari amaliy mahoratiga hissa qo'shish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, dunyoning turli institutlari tomonidan o'qitilgan boshqa turli xil uslublar mavjud. Yondashuv jihatidan har xil bo'lishiga qaramay, har doim ham ushbu metodlarni o'qitishning aniq usullariga ajratish mumkin emas. Ko'p marta turli xil yondashuvlar ma'lum darajada mos kelishi mumkin, shuningdek, turli xil bolalar ehtiyojiga bog'liq. Biroq, ushbu turli xil usullarni aks ettiradigan narsa- bu bolaning ehtiyojlarini qondirish uchun muassasa tomonidan qilingan harakatdir. Ushbu usullar, shuningdek, bola uchun maktabgacha ta'lim muassasasi bilan faol aloqada bo'lish zarurligini aks ettiradi.

Biz bolalarga baliq bermasligimiz kerak, aksincha baliq tutishni o'rgatsakgina ularni butun umr qorinlarni to'qligini ta'minlashimiz mumkin bo'ladi. Interfaol usullarni qo'llab mashg'ulot o'tilganda biz vazifani ado eta olgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. «Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi». Toshkent – 2008. 130 bet.
2. N.N.Azizxo'jayeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti.Toshkent-2006. 159 bet. 64-70 betlar.
3. R.J.Ishmuxamedov Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T., Istedod, 2008.-180 bet.